

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA DIALOGIK
NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION
METODLARI**

*Ilmiy rahbar: Namangan Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy tillar kafedrasi Katta
o‘qituvchisi Saydaliyeva Mashhura Anvarjon qizi*

Tel: +998941521918

UDK: 37.1174

Namangan Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy tillar kafedrasi bakalavr talabasi

Majidova Shodiya Ikromjon qizi

Tel: +998937670128

E-mail: shodiyamajidova@email.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilidagi dialogik nutq kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kommunikativ va interaktiv yondashuvlarning o‘quvchilarning nutqiy faolligi hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *dialogik nutq, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar, nutqiy faoliyat.*

Аннотация: В статье рассматривается эффективность инновационных педагогических методов в развитии диалогической речевой компетенции учащихся начальных классов при обучении английскому языку. Результаты исследования подтверждают положительное влияние коммуникативных и интерактивных подходов на формирование речевой активности и навыков общения учащихся.

Ключевые слова: *диалогическая речь, коммуникативная компетенция, английский язык, начальное образование, интерактивные методы, речевая деятельность.*

Abstract: This article examines the effectiveness of innovative pedagogical methods in developing dialogic speaking competence among primary school learners in English language education. The findings indicate that communicative and interactive approaches contribute significantly to improving learners’ oral participation and communication skills.

Keywords: *dialogic speech, communicative competence, English language teaching, primary education, interactive methods, speaking skills.*

INTRODUCTION

XXI asr ta’lim paradigmada xorijiy tillarni o’qitishning asosiy maqsadi o’quvchilarda lingvistik bilimlarni shakllantirish bilangina cheklanmay, ularning real kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot qila olish kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham chet tillarini o’qitishda kommunikativ yondashuvning ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bunda o’quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.⁷⁹

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi chet tilini egallashning eng muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yoshdagi o’quvchilarning taqlid qilish qobiliyati, yangi til birliklarini tez o‘zlashtirishi hamda muloqotga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji ularda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik zamin yaratadi. Ayniqsa, dialogik nutq o’quvchilarning savol berish, javob qaytarish, suhbatni davom ettirish va suhbatdosh fikriga munosabat bildirish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.⁸⁰

Dialogik nutqning o‘ziga xos jihati shundaki, u o’quvchidan nafaqat til birliklarini bilishni, balki ularni aniq kommunikativ vaziyatga mos ravishda qo‘llashni ham talab etadi. Masalan, “At the shop”, “At school” yoki “Meeting a new friend” kabi mavzular asosida tashkil etilgan suhbatlar o’quvchilarning kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda ingliz tilidan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar davomida o’quvchilar tilni o‘rganish obyektidan ko‘ra muloqot vositasi sifatida qabul qila boshlaydilar.

So‘nggi yillarda ta’lim amaliyotida interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Rol o‘yinlari, juftlik va guruhli ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish hamda AI asosidagi suhbat platformalari o’quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, kommunikativ to‘siqlarni kamaytirish va chet tilida erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.⁸¹ Shu bois mazkur metodlarning dialogik nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni va samaradorligini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o’quvchilarida ingliz tilidagi dialogik nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashdan iborat.

⁷⁹ Jalolov J.J. Chet tili o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2012. – B. 27–31.

⁸⁰ Rashov O.O’. “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o’qitishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish” // Shokh Articles Library. – 2025. – B. 52–55.

⁸¹ Xalilova M. “Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o’quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish” // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2025. – B. 67–70.

MATERIALS AND METHODS

Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarning pedagogik samaradorligini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, eksperimental sinov, suhbat, qiyosiy tahlil hamda diagnostik baholash usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Mazkur metodlar o‘quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasidagi o‘zgarishlarni tizimli tahlil qilish imkonini berdi.

Tajriba ishlari Namangan viloyatidagi umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda o‘quvchilarning ingliz tilida muloqotga kirishish darajasi, dialog tuzish qobiliyati hamda savol-javob jarayonidagi faolligi maxsus diagnostik topshiriqlar asosida o‘rganildi. Ushbu natijalar keyingi bosqichdagi pedagogik ta‘sir samaradorligini aniqlash uchun bazaviy ko‘rsatkich sifatida qabul qilindi.⁸²

Tajriba jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator innovatsion metodlar qo‘llanildi. Jumladan, kommunikativ yondashuv asosidagi topshiriqlar o‘quvchilarni real hayotga yaqin muloqot vaziyatlariga jalb etishga xizmat qildi. Masalan, “At school”, “In the shop” va “My family” kabi mavzular asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kundalik nutqiy birliklardan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirdi. Dialogik nutqni rivojlantirishda rolga asoslangan o‘yinlar muhim vosita sifatida qo‘llanildi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar xaridor–sotuvchi, o‘qituvchi–o‘quvchi, mehmon–mezbon kabi rollarni ijro etib, tabiiy muloqot muhitini yaratdilar. Bu esa ularning tayyor iboralarga bog‘lanib qolmasdan, mustaqil nutq hosil qilish qobiliyatini rivojlantirdi. Juftlik va kichik guruhlar asosida tashkil etilgan faoliyatlar o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirib, nutqiy faollikni oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, past faollikka ega o‘quvchilarning ham muloqotga jalb etilishi ushbu metodning samaradorligini ko‘rsatdi. “Question–Answer Chain” usuli orqali esa tezkor savol-javob almashinuvi tashkil etilib, dialogning uzluksizligini ta‘minlash malakalari rivojlantirildi.⁸³

Vizual yondashuv asosida rasmga tayangan dialog tuzish mashqlari ham keng qo‘llanildi. O‘quvchilar tasviriy materiallar asosida savollar tuzish va ularga javob berish orqali fikrni ingliz tilida ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamladilar. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va sun‘iy intellekt asosidagi ilovalar o‘quvchilarning mustaqil mashq qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynadi. Tadqiqot yakunida o‘quvchilarning dialogik nutq kompetensiyasi bir qator mezonlar asosida baholandi:

⁸² Tursunov B.B. Chet til darslarida rol o‘yinlaridan foydalanish metodikasi // Ilm-fan va ta‘lim. – 2022. – B. 73–77.

⁸³ Abduazizova D.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv samaradorligi // Pedagogik mahorat jurnali. – 2023. – №4. – B. 88–92.

muloqotga kirishish tezligi, savol berish sifati, javoblarning mazmuniy to‘liqligi, lug‘aviy boylikdan foydalanish darajasi hamda suhbatni davom ettirish qobiliyati. Olingan natijalar qo‘llanilgan innovatsion metodlarning samaradorligini tasdiqladi.⁸⁴

RESULTS

Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutq kompetensiyasini shakllantirishda qo‘llanilgan innovatsion yondashuvlarning samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Dastlabki diagnostik bosqichda o‘quvchilarning aksariyati ingliz tilida juda qisqa, ko‘pincha bir so‘zli yoki tayyor iboralar asosidagi javoblar bilan cheklanib qolganligi kuzatildi. Biroq tajriba jarayonida qo‘llanilgan interaktiv metodlar ta‘sirida ularning nutqiy faolligi sezilarli darajada oshdi va ular oddiy dialoqlarni mustaqil shakllantirish bosqichiga erishdilar. Eng yuqori samaradorlik rolga asoslangan o‘yinlar (role-play) orqali kuzatildi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarga jalb etildi. Masalan, “Shop”, “At school”, “Meeting a friend” kabi mavzular asosida tashkil etilgan dialogik mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kundalik leksik birliklarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Natijada ular faqat yodlangan iboralarni takrorlash bilan cheklanmay, vaziyatga mos yangi gaplar tuzishga ham harakat qildilar.⁸⁵ Juftlikda ishlash (pair work) texnologiyasi esa o‘quvchilarning psixologik to‘siqlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, nutqiy faolligi past bo‘lgan o‘quvchilar kichik guruhlarda o‘zlarini erkinroq his qilib, muloqot jarayonida faol ishtirok eta boshladilar. Bu holat ularning o‘ziga ishonchini oshirish bilan birga, dialog tuzish jarayonida mustaqillik darajasini ham kuchaytirdi.⁸⁶ Interaktiv raqamli platformalar va sun‘iy intellekt asosidagi mashqlar o‘quvchilarning talaffuz aniqligi hamda nutq tezligini yaxshilashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. AI vositalari yordamida o‘quvchilar o‘z nutqlarini qayta eshitish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa til o‘rganish jarayonining individual yondashuv asosida tashkil etilishini ta‘minladi. Tajriba yakunida o‘quvchilarning darsdagi faolligi, savol berish va javob qaytarish ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilandi. Ular dialogni boshlash, davom ettirish va yakunlash bosqichlarini nisbatan mustaqil bajarish darajasiga erishdilar. Umuman olganda, innovatsion metodlar o‘quvchilarning nafaqat lingvistik, balki kommunikativ kompetensiyalarini ham kompleks rivojlantirdi.

⁸⁴ Karimova N.B. Interfaol metodlar asosida og‘zaki nutqni rivojlantirish texnologiyalari // Zamonaviy ta‘lim. – 2024. – B. 115–119.

⁸⁵ Tursunov B.B. Chet tili darslarida rol o‘yinlari asosida nutqni rivojlantirish metodikasi // Ilm-fan va ta‘lim. – 2022. – B. 73–77.

⁸⁶ Yuldasheva M.M. Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt asosida til o‘qitish samaradorligi // Innovatsion ta‘lim. – 2024. – B. 101–106.

DISCUSSION

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutq kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar an‘anaviy metodlarga nisbatan ancha samarali ekanligini ko‘rsatdi. An‘anaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi rolida qolsa, interaktiv yondashuvlar ularni faol kommunikativ jarayon ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa nutqiy faollikning oshishi va muloqotga kirishish darajasining kuchayishiga olib keladi.⁸⁷ Kommunikativ yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u tilni nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishga imkon beradi. Masalan, “In the classroom”, “At the shop” yoki “Daily routine” kabi mavzular asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarning real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etishini ta‘minlaydi. Bunday faoliyatlar natijasida o‘quvchilar til birliklarini yodlashdan ko‘ra, ularni ma‘noli nutq jarayonida qo‘llashni o‘rganadilar.⁸⁸

Rol o‘yinlari (role-play) dialogik nutqni rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu metod orqali yaratilgan sun‘iy kommunikativ vaziyatlar o‘quvchilarga tabiiy muloqot muhitini his qilish imkonini berdi. O‘quvchilar turli rollarni bajarish jarayonida nafaqat leksik birliklarni qo‘llashni, balki muloqotni boshlash, davom ettirish va yakunlash ko‘nikmalarini ham shakllantirdilar. Bu jarayon ularning hamkorlikda ishlash va fikr almashish kompetensiyasini ham rivojlantirdi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt vositalarining ta‘lim jarayonidagi ahamiyatini ham tasdiqladi. AI asosidagi ilovalar o‘quvchilarga talaffuzni mustaqil tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkonini berdi. Bu esa individual yondashuvni kuchaytirib, har bir o‘quvchining o‘z tezligida rivojlanishiga sharoit yaratdi. Innovatsion metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim jarayonida bunday yondashuvlarni tizimli va maqsadli qo‘llash zaruriy pedagogik ehtiyoj sifatida qaraladi.⁸⁹

CONCLUSION

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarning sezilarli darajada samarali ekanligini tasdiqladi. Tajriba jarayonida qo‘llanilgan kommunikativ metod, rolga asoslangan o‘yinlar, juftlikda ishlash texnologiyasi, shuningdek, raqamli ta‘lim

⁸⁷ Ismailova Z.K. Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuvning didaktik asoslari // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 61–66.

⁸⁸ Raximov A.A. Boshlang‘ich ta‘limda interfaol metodlar asosida nutqni rivojlantirish // Pedagogika jurnali. – 2022. – B. 94–98.

⁸⁹ Qodirova M.M. Raqamli texnologiyalar asosida chet tilini o‘qitish samaradorligi // Innovatsion pedagogika. – 2025. – B. 77–82.

vositalari va sun'iy intellekt elementlari o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga hamda ularning muloqotga kirishish darajasini mustahkamlashga xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat lug'at zaxirasini kengaytiradi, balki ularning fikrni erkin ifodalash, suhbatni boshlash va davom ettirish, shuningdek, kommunikativ vaziyatlarga mos javob qaytarish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, interaktiv va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda chet tilidan foydalanishga bo'lgan ishonch va motivatsiyani kuchaytirganligi kuzatildi.

Umuman olganda, ingliz tili darslarida innovatsion metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutq kompetensiyasini samarali rivojlantirishda muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interaktiv yondashuvlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B. 27–31.
2. Rashov O.O'. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish" // Shokh Articles Library. – 2025. – B. 52–55.
3. Xalilova M. "Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish" // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – B. 67–70.
4. Tursunov B.B. Chet til darslarida rol o'yinlaridan foydalanish metodikasi // Ilm-fan va ta'lim. – 2022. – B. 73–77.
5. Abduazizova D.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv samaradorligi // Pedagogik mahorat jurnali. – 2023. – №4. – B. 88–92.
6. Karimova N.B. Interfaol metodlar asosida og'zaki nutqni rivojlantirish texnologiyalari // Zamonaviy ta'lim. – 2024. – B. 115–119.
7. Tursunov B.B. Chet tili darslarida rol o'yinlari asosida nutqni rivojlantirish metodikasi // Ilm-fan va ta'lim. – 2022. – B. 73–77.
8. Yuldasheva M.M. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida til o'qitish samaradorligi // Innovatsion ta'lim. – 2024. – B. 101–106.
9. Ismailova Z.K. Chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuvning didaktik asoslari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 61–66.
10. Raximov A.A. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar asosida nutqni rivojlantirish // Pedagogika jurnali. – 2022. – B. 94–98.
11. Qodirova M.M. Raqamli texnologiyalar asosida chet tilini o'qitish samaradorligi // Innovatsion pedagogika. – 2025. – B. 77–82.